



## **NAZAR ESHONQUL QISSA VA HIKOYALARIDA AYOL RUHIYATI TASVIRI MUAMMOSI**

**Oripova Nurafshon Olimjon qizi,**  
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU*  
*tayanch doktoranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207179>

***Annotatsiya:** Ushbu tezisda mahoratli adib Nazar Eshonqul qissa va hikoyalarida ayollar ruhiyatining aks etishi, ularni tasvirlashda foydalanilgan badiiy-tasviriy vositalar, ularning kitobxonga ta'siri haqida fikrlar tavsiflangan.*

***Kalit so'zlar:** ayol obrazi, xarakter, motiv, milliylik, Nazar Eshonqul, qo'shiq, peyzaj, qissa, hikoya.*

Ayollar obrazi kirib bormagan san'atning biror sohasini topish mushkul. Badiiy adabiyot, haykaltaroshlik, miniatyura, rassomchilik, kino, teatr va raqs shular jumlasidandir. Ayollar obrazlari yillar davomida barcha xalqlar adabiyotida o'ziga xos ko'rinish bergan. Shu jumladan o'zbek adabiyotida va xususan Nazar Eshonqul qissa va hikoyalarida ham ayollar obrazi mahorat bilan tasvir etilganligini, uning ruhiyatiga sof, haqqoniy chizgilar bilan ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, o'zbek oilalarida ayol oila yumushlarini bajarish uchun mas'ul. Ayolning yuvosh, mo'min-qobil, bosh eguvchanlik xususiyati oddiy, mentalital xususiyat. Masalan Nazar Eshonqulning "Bepoyon osmon" hikoyasi qahramoni Oyto'ldi "tug'mas" bo'lgani uchun hamma uy ishlarini bajarib yuradi (aniqrog'i doimiy unga zulm qilinib, o'zi tengi qaynopasi tomonidan bajartiriladi), "Qultoy" hikoyasi qahramoni Arzixol esa o'z farzandidan kaltak yesa ham aslida ayb o'zida ekanligini hammaga aytib, Uljonning tarafini olib yurishini olishimiz mumkin. Lekin boshqa bir jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, ayol zoti har qancha aqlli, erkaklardanda o'tar ishbilarmon bo'lmasin, ruhiyatida ayol bo'lib yashashi, barcha ayollar kabi mehrga tashna, suyulishni istovchi, pok muhabbatga talpinuvchi xilqat ekanligiga urg'u beriladi. So'zimizning isboti sifatida "Urush odamlari" qissasi qahramoni Biydi momo ham shuncha qiyinchiliklarga bardosh bergan, tuyg'ularini, ehtiroslarini faqat va faqat mehnat bilan yenga olishni uddalagan bo'lsa ham o'g'illari ilk bor zot ayirib kelganida to'yib-to'yib yig'laganligini olishimiz mumkin. Va yana bu holatga aniqlik kiritsak, shu qissa qahramoni Anziratning hiyonat ko'chasiga tasodifan o'zi anglamay kirib qolib, unda tentirab yurishi ham uning aynan shu mehrsiz qolishdan qo'rqishi natijasi emasmidi?! Demak ayol har qanday holatda ham hislarga yengiluvchi hilqat.

## “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Yoki bo‘lmasa umri davomida “tug‘mas”, “qisir” kabi hunuk sifatlar bilan haqoratlanib, o‘zining jamalaksoch dugonasini “opajonlab” yashagan Oyto‘ldi ham shu hayotga chidab yurishi turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan sof hislari tufayli emasmi?! O‘z o‘g‘li, kelini, nevaralariga huddi quldek xizmat qilib yashagan, hech holidan arz qilmagan Arzixolning taqdiriga sababchi bo‘lgan ham uning “qamchisiga bandak to‘qib bergani” Salom Chavandozga bo‘lgan muhabbati sabab emasmi?! Adib asarlarida o‘zbek ayolining dard-iztirobi, ruhiyatiga xos mas‘umalik, ko‘nuvchanlik, mutelik ortida bir qator hayotiy muammolar turishini talqin etar ekan, ularning tashqi qiyofasini ham nazardan chetda qoldirmagan. Ularning yurish-turishi, qilayotgan ishlari, gapirgan gaplaridan tortib, qiliqlarigacha qahramon xarakteriga mos tushgan deya olamiz. Aynan adib asarlarida jamiyatdagi ayollar fojiasi o‘zga nigoh orqali kuzatilishini, qahramonlarning ruhiyatini, ayollik olamini o‘z tuyg‘ulari orqali ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin. Nazar Eshonqul ilk qissasidayoq ayollarning tashqi ko‘rinishi va ruhiyatini tasvirlash maqsadida tashbehdan foydalanadi. Bunga misol qilib: *Kampirlarning ham so‘lib qolgan tirish yuzlaridagi sho‘x va quvnoq boquvchi ko‘zlari xuddi so‘ligan otquloq bargiga tushgan ikki tomchi shudring kabi yaltiray boshlagandi* [Eshonqul N. Saylanma. 2-qism. – Toshkent: Akademyashr, 2022.373-b].

Inson ruhiyatining chuqur tahlili, uning ong osti, yashirin sir-sinoatlarini yanada yaxshiroq tushunish va tasvirlash doim adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan hisoblangan. Mana shu boisdan ham badiiy asarda inson ruhiyatining chuqur va batafsil tahlili adabiyotning, badiiy asarning qiymatini belgilab kelmoqda. Ruhiyat tasviri muammosi jahon ilm-fanidagi va shu bilan birga o‘zbek adabiyotshunosligidagi dolzarb tadqiqot muammolaridan biridir. Aynan ushbu qissada ham biz Anziratning ruhiyati muammosi tasvirlariga qayta-qayta duch kelamiz. Anziratning ruhiyatida bo‘lib o‘tgan baxtsiz hodisalarga oid chuqur iztirob, dard-alam chizgilari bor. Nazar Eshonqul ayollar ruhiyatidagi nozik qirralarni topishda ayol va jamiyat, er va xotin munosabatlari talqinidan ayol va muhabbat masalalari tahlilidan foydalanadi. Adib oddiy hayotiy-maishiy voqealardan katta umuminsoniy badiiy umumlashmalar yaratishga intiladi.

Ayollar taqdiri va ruhiy iztiroblari nafaqat ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muammolar bilan bog‘lanadi, balki har qanday ayolning ruhiy dramasi o‘z olamidagi ruhiy muvozanatning buzilishidan kelib chiqadi. Anzirat ham shu ruhiy muvozanati buzilganligi sababli xiyonat ko‘chasida sarson kezdi, o‘zligini yo‘qotdi. Ayol dunyosidagi ruhiy muvozanatning buzilishi uning o‘zi istagan hayot tarzida

## “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



yashamasligi, mehrga tashnalik, baxt uchun o'voralik bilan bog'lik desak adashmaymiz. Xiyonatidan keyin sochiga oq oralagan Anzirat keyinchalik bunga ko'nikib ketdi. Endi unga farqi yo'qdek, qiynalmay yashasa bo'ldi edi. Or-nomusini qiyinchilikka bardosh qilolmay yo'qotdi. Qissaga qaytadigan bo'lsak, Anzirat xiyonat ko'chasiga bila-bila kirmagandi. Bu haqida bizdan oldingi tadqiqotlarda ham aytib o'tilgan. Jumladan Yulduz Eshmatovanning tadqiqotida “Nazar Eshonqulning daxshatli urush fojealari tasvirlangan “Urush odamlari” qissasida ham fasllarga uyg'un tarzda qahramonlar iztiroblari, g'am-qayg'ulari ochib beriladi. Fojialarga to'la davr muhiti ko'ngilchan, dilkash kishilar ruhiyatidagi o'zgarishlarga, urush kabi sovuq, dag'al munosabatlarga aylanganini, bu esa qahramonlar taqdirining fojiali qismatiga sabab bo'lganligini badiiy gavdalantirgan”. Olima fikrlarini davom ettirarkan, Anziratning xiyonatiga o'z munosabatini ham bildirib o'tadi. “Yozuvchi davrning mudxish, ayovsiz urush oqibatida, sharoit taqozosiga ko'ra, farzandini hayotga qaytarish maqsadida gunohga qo'l urgan ayol, uning to'satdan qaytib kelgan eri oldidagi iztirobli vijdon azobida o'tayotgan kechinmalarini ro'y-rosti, bor haqiqatlari bilan tasvirlaydi”. Shu yerda bir narsaga izoh berib o'tish lozim. Anzirat bu ko'chaga atay kirgan emasdi. Agar u Mirzaqulning qabih niyatini bilganida balki o'sha manzilga bormasmidi ham?! Bunisi bizga qorong'u. Farzandini hayotga qaytarish maqsadida deyilgan tadqiqotda. Bu xiyonat maqsad qilinmagandi. Maqsad qilmoq arabcha qasd qilmoq fe'lidan olingan. Bu mutlaqo Anzirat uchun kutilmagan holat edi. Ta'rif jozi bo'lsa yetti uxlab tushiga ham kirmagandi bunday bo'lishi. Tasodifiy yuz bergandi bu voqea Anzirat uchun (Mirzaqul buni rejalab yurganini bilmasdi, uning yordamini beminnat, xolis deb o'ylardi). Mana shu vaziyat asarda quyidagicha beriladiki bu fikrimizning dalili bo'la oladi. “Anzirat nima uchun Mirzaqul aynan shu joyni tanlaganini hayoliga ham keltirmagan, Mirzaqulning imoni butun odam ekaniga ishongan, hech qanday shubhaga bormagandi” [Eshonqul N. Saylanma. 2-jild. B.419]. Aynan mana shu tasodifiylik antik yunon adabiyotida ham, sharq mumtoz adabiyoti namunalarida ham juda ko'p uchraydigan badiiy vositadir. Tasodifiylik qahramon taqdirini va hayotini keskin ravishda o'z tizginidan chiqarib yuboradi. Bu ijobiy tomonga ham, salbiy tomonga ham bo'lishi mumkin. Qissadagi voqealarda tasodifiylik zanjirini tashkil etgan voqealar va turli vaziyatlarda “taqdir”, “qora qismat”, “tasodif”, “taqdir jazosi” degan badiiy xronotopni tashkil qiluvchi so'z va so'z birikmalari bir-biriga ulanib ketadi. Qissa yakunidagi vojeaviylik buning yorqin namunasidir. Aynan mana shu vaziyatni asarning kulminatsiyasi deb

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



qarashimiz mumkin. Ayollarning tuyg‘ulari qissaning boshlanish qismidayoq o‘ziga xos tarzda va haqqoniy ifodalangan.

*“G‘am alamlarga to‘lgan turli qalblar o‘zlarini bir zum, aqalli bir nafas hursand qilishga urinishar, bir-birining gapiga shaqirlab kular, yosh kelinchaklar eri qaytib kelib, oyog‘i yengil bo‘lib qolgan Anziratga qochirim gaplar qilishar, garchi gaplari kulguli bo‘lmasa ham kulishar, bu kunning tezroq tugab qolishidan, yana urush xotiralari va vahimalari yotgan uylariga qaytishdan, yana o‘sha tashvishli yolg‘iz, horg‘in hayotlari boshlanishidan cho‘chishayotgandek ko‘rinishardi. Aslida ham bu qalblarni bir varaq orqaga yoki oldinga varaqlasa, hali urushli hayot bor, har ikkala tomonda ham urush kezayotgan va bu qalblar ning eng yaqin kishilari, erlari, bolalari, jigarlari, og‘a-inilari ana shu urushda o‘layotgan, majruh, nogiron bo‘layotgan yoki biron narsasidan ayrilayotgan edi...”*

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Qur‘onov. Adabiyotshunoslikka kirish. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz).
2. N.Eshonqul. “Bepoyon osmon”. (Hikoya) [www.ziyouz.uz.com](http://www.ziyouz.uz.com)
3. N.Eshonqul. “Momoqo‘shiq”. (Qissa) [www.ziyouz.uz.com](http://www.ziyouz.uz.com)
4. N.Eshonqul. “Qultoy”. (Hikoya) [www.ziyouz.uz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.uz.com/kutubxonasi)
5. N.Eshonqul. “Urush odamlari”. (Qissa) [www.ziyouz.uz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.uz.com/kutubxonasi)
6. N.Eshonqul. “Shamolni tutib bo‘lmaydi”. (Hikoya) [www.ziyouz.uz.com](http://www.ziyouz.uz.com)